

Taniqli turkolog Andrey Kubatin vafot etdi

O'zR FA Milliy arxeologiya markazi katta ilmiy xodimi, iste'dodli turkolog Andrey Kubatin 29-oktyabr kuni 36 yoshida vafot etdi.



Andrey Kubatin 1984-yil 9-martda Toshkent viloyati O'rta Chirchiq tumanida tug'ilgan. 2007-yil O'zbekiston Milliy universitetining "Arxeologiya" kafedrasida magistraturasini tugatib, shu yili O'zR FA Sharqshunoslik institutida ilmiy xodim bo'lib ish boshlagan.

U keng qirrali izlanuvchi bo'lib, turkologiya, numizmatika, lingvistika va umuman Markaziy Osiyo tarixi bo'yicha qator ilmiy ishlar muallifi edi. Xususan, 2016-yilda uning "Turk xoqonligida unvonlar tizimi: kelib chiqishi va vorisiylik" nomli monografiyasi chop etilgandi.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Milliy arxeologiya markazi nomidan Andrey Kubatinning bevaqt vafoti munosabati bilan uning oila a'zolari va yaqinlariga chuqur hamdardlik bildiramiz.